

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Samarqand davlat universiteti

Tarix fakulteti

“O'zbekiston tarixi” kafedrası

“O'zbekiston tarixi” fani

Mavzu: SAMARQAND TURIZM SHAHRI

KURS ISHI

Bajaruvchi: Omonov D

Ilmiy rahbar: Esanov A

Samarqand 2016 yil

MAVZU: SAMARQAND TURIZM SHAHRI

REJA:

KIRISH

1. Viloyatda turizmni rivojlantirishning imkoniyatlari va resurslari
2. Samarqand viloyatida turizmni hududiy tashkil etilishi.
3. Viloyatda turizm infrastrukturasi rivojlanishi

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Hozirgi kunda turizmning jahon xo'jaligidagi hissassi yil sayin oshib, muhim makroiqtisodiy tarmoqlar qatorida rivojlanmoqda. Mazkur soha dunyodagi ko'pgina davlatlarning daromad manbai sifatida ularning milliy iqtisodiyotida asosiy o'rin tutmoqda. Shu jihatdan O'zbekistonda mazkur tarmoqqa e'tiborni kuchaytirish muhim masalalardan biridir.

Respublikamiz mustaqillika erishgandan so'ng xo'jalikning barcha tarmoqlarida tub islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, turizmni rivojlantirishga ham davlat tomonidan ustuvor ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining asarlarida va amaliy faoliyatda ulug' ajdodlarimiz qoldirgan boy tarixni, qadamjolarni, qabrlarni va shu davrlarda qurilgan tarixiy obidalarini, hamda ular yashagan zaminni ko'rish butun dunyo sayyohlari azaliy orzusi ekanligini ta'kidlaydi.* Darhaqiqat, ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish mustaqil mamlakatimizning iqtisodiyotini mustahkamlash bilan bir qatorda uning jahon hamjamiyatidagi o'rnini yanada oshiradi.

Ayni vaqtda turizm sohasini rivojlantirish mintaqalar iqtisodiyotini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mustaqillik yillarida mazkur tarmoqni yuksaltirish uchun ko'pgina ishlar amalga oshirildi, unga tegishli ma'rifiy va huquqiy asoslar yaratildi. Ammo shunga qaramasdan, mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanilmayapti, turizmda yaratilgan shart-sharoitlar mintaqalarda talab darajasida emas. Bu esa turizm infrastrukturasini mintaqalar bo'yicha tadqiq etish lozimligini asoslab beradi.

O'zbekiston turizmini iqtisodiyotning asosiy tarmog'i sifatida yuksaltirish uchun mintaqalarda turizm infrastrukturasini o'rganish zarur. Bu o'rinda viloyatlardagi mavjud mehmonxonalar, turistik firmalar umumiy ovqatlanish

* Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср босқинида, шавфсизликка ташдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997.-б.140-141.

korxonalari, transport xizmatlari, sport sog'lomlashtirish inshootlari, ko'ngil ochar joylar (diskoteka, teatr, parklar va h.k.), savdo rastalari (turli xil suvenir va sovg'alar sotuvchi), medisina xizmati, aloqa xizmati, maishiy xizmat ko'rsatish uylari va boshqa sohalar faoliyati turizm sohasini rivojlanganlik darajasini va istiqbolini belgilaydi. Biroq, ta'kidlash joizki, respublika mintaqalari turizm infrastrukturasi nuqtai nazaridan deyarli o'rganilmagan. Vaholanki, viloyatlarda (turistik markazlarda) turistlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha juda ko'plab muammolar mavjud. Ushbu tadqiqotda mazkur masalalar Samarqand viloyati misolida o'rganilgan.

Samarqand viloyati turizm imkoniyatlari jihatdan nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda yetakchi mintaqalardan biridir. Ushbu imkoniyatlardan keng foydalanish, dunyo sayyohlarini jalb qilishda ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarni chuqur tahlil qilish va baholash infrastrukturani yaxshilash, muammolarni hal qilish uchun tavsiyalarni ishlab chiqish mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini asoslab beradi.

Turizm infrastrukturasi o'rganishga A.Taksanov, A.S.Soliyev, N.To'xliyev, M.Usmonov, T.Abdullayeva kabi olimlar hissa qo'shganlar. Ular turizm infrastrukturasi uning nazariy va tashkiliy masalalarini o'rganib, o'zlarining tegishli takliflarini berishgan. Ayniqsa A.Soliyev va M.Usmonov o'zining Turizm geografiyasi kitobida Samarqand viloyati turizm infrastrukturasi ko'rib chiqqan.

Mazkur bitiruv malakviy ishining bevosita tadqiqot obyekti sifatida Samarqand viloyatining turizm obyektlari tanlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizda turizmni rivojlantirish hamda Vazirlar Mahkamasining ushbu tarmoqni yuksaltirish bo'yicha ishlab chiqqan qonun, ko'rsatma va qarorlariga tayanadi. Shuningdek, tadqiqotning nazariy asoslari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada yaratilgan ilmiy g'oya va tushunchalar, turizm infrastrukturasi bilan shug'ullangan olim va mutaxassislarning ilmiy ishlanmalari xizmat qiladi.

1. Viloyatda turizmni rivojlantirishning imkoniyatlari va resurslari

Samarqand viloyati 1938 yil 15 yanvarda tashkil topgan bo'lib, viloyat markazi Samarqand shahridir. Uning yer maydoni 16,77 ming kv.km.ni tashkil etadi. Viloyat aholisi 2867,1 ming kishi (2004 y.). Ma'muriy jihatdan Samarqand viloyati 14 ta tuman, 12 shahar va shaharcha hamda 1932 ta qishloqlardan iborat.

Geografik o'рни. Samarqand viloyati hududiy joylashuviga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining markazida, Zarafshon vodiysining o'rta qismida joylashgan. Viloyat janubdan qashqadaryo, shimoldan Navoiy, shimoli-sharqdan Jizzax viloyatlari, janubi-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Samarqand viloyatining bunday geografik o'рни turizmni rivojlantirishga qulay imkoniyat yaratadi. Samarqand qadimdan «Buyuk Ipak Yo'li»ning tugunida joylaganligi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratganligi tarixdan ma'lumdir. Hozirgi paytda ham bu yerni mahalliy va xalqaro avtomobil, temir yo'l hamda havo yo'llarining kesib o'tganligi turizmni tashkil etish va rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Viloyat markazi-Samarqand, Zarafshon daryosi chap sohilida joylashgan, u dunyodagi eng qadimiy shaharlardan biridir. Samarqandning ko'p asrlik tarixi davomida vayronalarga aylantirilishi, yangidan qayta tiklanishi, gurkirab o'sishi va rivojlanishiga uning iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi katta ahamiyatga ega bo'lgan (Akromov, 1969). Shuningdek shaharda madaniyat, san'at, fan, savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivoji topishi hamda tarixiy va me'moriy obidalarining vujudga kelishi (shaharda 30 dan ortiq noyob tarixiy obidalar mavjud) ham bevosita uning iqtisodiy geografik o'rnining nihoyatda qulay bo'lganligidan dalolat beradi.

Mintaqa turizmning tashkil etish va rivojlantirishda ko'plab tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan xalqaro turizmni rivojlantirish uchun zamonaviy aeroport, yo'llar, savdo shahobchalari, madaniy dam olish uylari, shahar yodgorliklarining yaxshi saqlanganligi

ahamiyatlidir. Bundan tashqari, turizm bilan bog'liq iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi hamda sanoat tarmoqlari, xususan oziq-ovqat to'qimachilik va boshqalar ham bu sohani rivojlantirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi (Komilov, 2001).

Hozirgi kunda zamonaviy turizm xalqaro aloqa tizimi (Internet) turli xizmatlarning yaratilishini taqozo etadi. Ayni payta sayyoh uchun nafaqat tarixiy, arxitektura obidalari, qoalversa tabiiy, diniy, etnografik va boshqalar ham zarurdir. Shundan kelib chiqqan holda, turizmni tashkil etish va rivojlantirishga qator omillar ta'sirini aniqlash mumkin. Bu borada xususan ikki yirik, ya'ni tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy sharoiti. Turizmni tashkil etish, turistik marshrutlar, ekskursiyalar uyushtirish avvalo qulay tabiiy sharoitning mavjudligini talab qiladi. Chunki o'ziga xos relyef, iqlim va turli-tuman ekzotik landshaft manzaralari kishilarni o'ziga tortadi. Samarqand viloyati tabiiy va iqlimiy sharoiti respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan ancha qulay bo'lganligi sababli o'lkada qadimdan aholi manzilgoxlari vujudga kelgan, mahalliy xalq dehqonchilik va hunarmndchilik kabi sohalar bilan shug'ullangan (Soliyev, qodirov, 1998). Samarqand dunyo sivilizasiyasi o'choqlaridan biri sifatida, dunyoviy va diniy bilimlar, manaviyat-ma'rifat va madaniyat markazi bo'lishi bilan birgalikda, o'zining sof havosi, iqlimi va go'zal tabiati bilan ajralib turadi.

Samarqand viloyati tabiiy sharoiti, yer usti tuzilishi, janub va shimol hamda shimoli-sharq tomonlarini va tog'liklardan iboratligi ham turizmga ahamiyatlidir. Viloyat shimolda Nurota tog'lari (Oqtog', qoratog', /udbin), janubdan Zarafshon tog' tizmalari (Chaqilkalon, qoratepa, Ziyovuddin, Zirabuloq va h.k.) bilan chegaralanadi. Mintaqa relyefi, umuman olganda, uning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun qulaydir.

Zarafshon vohasining o'rta qismini Samarqand cho'kmasi ishg'ol qilgan bo'lib, shimol va janub tomonlardan o'rta qismiga tomon qiyalanib, sharqdan g'arbga 800-350 metrgacha pasayib boradi. Uning markaziy qismini Zarafshon daryosi kesib o'tib, terrasalarga ajratadi. Viloyat janubidagi Zarafshon tog' paleozoyning ohaktosh, gips va kristalli slaneslaridan iborat. Bu tog' tizmasi

viloyat hududida Chaqilkalon va qoratepa (eng baland nuqtasi 2204 m) tog'larini hosil qiladi va g'arbga tomon tekislanib, Jom cho'liga tutashadi (Umarov, Ashurov, Saidmurodov, 1980). Bu mintaqada tabiiy turistik obyektlardan g'orlar, nurash natijasida hosil bo'lgan shakllar va boshqa ekzotik ko'rinishdagi tabiiy obidalar vujudga kelgan.

Viloyat shimolidagi Nurota tog' tizmalari (2165 m) esa Oqtov, qorator, /udbin kabi o'rta va past tog'larni tashkil etadi. Bu esa relyef sistemasida o'ziga xos tabiiy va landshaft xususiyatlari rekreasiya resurslarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Jumladan, tekislik qismi Zarafshon daryosi sohillarida (aholi manzilgohlari, dehqonchilik qisman chorvachilik) hamda Jom va Karnobcho'l cho'llarida qadimdan sayyohlikning ko'pgina turlarini tashkil etish mumkin.

Mintaqa tog'li va tekislik qimslaridagi yog'in va issiqlikning taqsimlanishi birmuncha o'zgaruvchidir. Samarqand meteorologik markazi ma'lumotlariga ko'ra, yil bo'yicha quyoshning yoritilishi 2877 soatga teng bo'lib, uning 70 foizi may oyidan oktyabrgacha to'g'ri keladi va o'rtacha har bir sm.kv. maydonga 181 kkal quyosh radiyasi tushadi. Bu viloyatda dehqonchilikning o'ziga xos turlarini yetishtirish imkoniyatini tug'diradi.

Viloyatning tog'li va tekislik mintaqalarida yog'in turlicha? g'arbiy qismida 300-450 mm., sharqiy va janubi-sharqiy qismlarda o'rtacha 650-850 mm.ga yetadi. qish fasli yumshoq kelishi bilan birga ayrim yillari sovuq kunlar, uzluksiz davom etadi va tekislik qismida mutloq minimum (qo'shrabot tumanida 1975 y.) - 30° S ga yetadi. Viloyatda eng sovuq yanvar oyining o'rtacha harori 0° S dan -21° S ni tashkil etadi. Yoz oyi issiq va jazirama, iyulning o'rtacha harorati 25° , 26° S kuzatiladi (Umarov, Ashurov, Saidmurodov, 1980).

Viloyatga asosan yil davomida shimoli-sharq tomondan shamol esib turadi. Binobarin, Samarqand viloyati iqlimining o'ziga xosligi uning bahor va yoz oylarida mavsumiy sayyohlikni tashkil etish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayni vaqtda bu yerga yoz oylari, xususan iyul-avgust va nisbatan sovuq mamlakatlardan keladigan sayyohlar uchun sharoit uncha qulay emas.

Samarqand viloyatining gidrologik yodgorliklari jumladan, tog' etaklari va tog' oralig'i soylarida tabiiy ravishda hosil bo'lgan tabiat manzalarai, ya'ni tog' shakllari, chuqurliklar, g'orlar, buloqlar, chashma suvlari va hokazolar mintaqa turizmi imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, viloyatdagi mavjud shifobaxsh va tibbiyot hamda boshqa sohalarda keng foydalaniladigan buloq, chashma suvlari va baliqchilar aholi sog'lig'ini tiklash, sog'lomlashtirish va dam olish uchun qulay sharoit yaratadi. O'z o'rnida ular rekreasiya turizmining ahamiyatini ham kengaytiradi. Bunday maskanlar viloyatning Urgut, Samarqand, Nurobod va boshqa tumanlari tog' va tog'oldi hududlarida mavjud bo'lib, ulardan turizm maqsadida foydalanish imkoniyatlari yuqoridir.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston o'zining go'zal tabiati, o'smlik dunyosi bilan boshqa respublikalardan ajralib turadi. Mamlakatimizga tashrif buyuradigan sayyohlarni qadimiy yodgorliklardan tashqari ming yillik tarixni eslatuvchi daraxtlar bisyordir. Shu bois, ulardan turizm nuqtai nazaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun mintaqa «yashil boyligi»ni geografik jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Samarqand viloyatining sug'orilmaydigan, haydalmaydigan tog' va tog'oldi tekislik, shuningdek, cho'l hududlarida har xil o'simliklar keng tarqalgan. Bular ichida eng ko'p tarqalganlari efimer, efimeroidlar va vegetasiya davri qisqa davom etadigan o'simliklar hisoblanadi. Mintaqaning katta hududi sug'orma dehqonchilik vohalari bo'lib, bu yerda qishloq xo'jalik ekinlari yetishtiriladi. Viloyatning yaylov o'simliklariga rang, qo'ng'irbosh, bug'doiyq, qiltiq, chatir kabilar kiradi. Cho'l mintaqasi bir yillik efimerlar va ko'p yillik (qizg'aldoq, qo'ng'irbosh, selen, saksovul, quyon suyak, shuvoq, qizilmiya va h.k.) o'simliklar bilan qoplanib yotadi (halilova, 1984).

Tog' va tog' oldi hududlar nihoyatda o'simlik dunyosiga boy bo'lib, rang-barang o'simliklar yong'oq, olma, tog'olcha, archazorlar va boshqalar. Omonqo'ton o'rmonlarida (maydoni 2158 gektar, bu yerda 1887 yilda dastlabki ko'chatlar ekilgan) o'ziga xos landshaft shakllarini vujudga keltiradi. Bu yerda gladichiya, qayrag'oya, do'lana, akasiya, grek yong'og'i, zarang, qrim qoraqayi va

boshqa ko'plab daraxtlar mavjud. Omonqo'ton hududining iqlim va o'simlik dunyosini o'ziga xosligi bu joyda ko'plab dam olish zonalari, oromgohlar qurish imkoniyatini bergan.

Samarqand viloyatida bundan tashqari, Ohakli tog' o'rmon dam olish zonalari mavjud. Bu yerdagi ham dam olish uylari (hozirgi paytda ko'proq sayyohlarga xususiy tadbirkorlar xizmat ko'rsatmoqda), «Yoshlik» turistik bazasi va boshqalar o'zining qulay iqlimiy, landshaft hamda go'zal tabiati bilan hududda mavsumiy dam olish makonlarining joylanishiga sabab bo'lgan:

Zarafshon daryosi qayirlari (Zarafshon qo'riqxonasi) o'simlik dunyosiga boy hududlardan biridir. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, viloyat hududining aksariyat joylarida, ayniqsa baxor oyining o'rtalarida o'simlik dunyosining nihoyatda go'zal manzarani hosil qilishni mavsumiy hamda qisqa muddatli sayyohlikni tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

Viloyat tumanlaridagi asrlar davomida saqlanib kelinayotgan daraxtlar ham turistik ahamiyatga egadir. Urgut (Yuqori Chor-chinor, 1020 yillik), Kattaqo'rg'on (qoradaryo qishlog'ida 565 yillik chinor, Tim qishlog'ida 1000 yillik archa), Jomboy (Halvoyi qishlog'ida) va boshqa tumanlarda ming yillik daraxtlar saqlanib qolgan.

Samarqand shahri va uning atrofini respublikaning boshqa shaharlaridan farqi shundan iboratki, bu yerda qadimdan (Amir Temur bog'larining dong'i butun dunyoga mashhur bo'lganligi tarixdan bizga ma'lumdir). Ko'rkam bog'i-rog'lar tashkil qilingan bo'lib, ular sayyohlarni hayratga solgan. Shaharning 90 gektardan ortiq hududi parklar va hiyobonlar, 500 gektar bog'lar va uzumzorlar egallagan. Hozirgi paytda shahar hududida, ayniqsa, Universitet hiyoboni hamda shaharning eski qismidagi mahallalar, choyxonalaridagi yuzlab turli xil qadimiy chinorlar, qayrag'och va tut daraxtlari, o'simlik dunyosiga qiziquvchi ko'plab sayyohlarni jalb etishi mumkin.

Viloyatning hayvonot dunyosi ham xilma-xildir. Tog' va tog' oldi mintaqasida sudralib yuruvchilar, qushlar, tuyoqlilar oilasining vakillari, hashoratlar va boshqalar keng tarqalgan bo'lib, ular ayniqsa bahor, yoz oylarida

shu joylar landshaftiga o'zgacha tarovat va xusn bag'ishlaydi, sayyohlarning maroqli dam olish hamda ov turizmini yo'lga qo'yish imkonini yaratadi.

Aholisi. Viloyatda turizmni tashkil etish va rivojlantirishda aholini o'rganish turizm geografiyalaridan biri hisoblanadi. Samarqand viloyatining aholisi, 2005 yilgi ma'lumotga ko'ra, 2867 ming kishidan ortiq, shundan shahar aholini esa 737,1 ming kishini tashkil etadi. Viloyat aholisining jinsiy tarkibida ayollar 50,1 % va erkaklar esa 49,9 % bo'lib, mehnatga yaroqli aholi 47,2 foizga teng.

Samarqand viloyati aholisining milliy etnik tarkibi boshqa viloyatlardan ko'p jihatlari bilan ajralib turadi. Ayni paytda shuni ta'kidlash joizki, ayniqsa Samarqand shahri aholisining ko'p millatligi va etnografiyasining o'ziga xosligi turizmga katta ahamiyatga ega. Bu yerda tojik, ozarbayjon, eron, arman va boshqa millat vakillari salmog'i ko'proq. Bunday etnografik vaziyat ko'p jihatdan tarixiy rivojlanishga bog'liq va ayni vaqtda turizmga ham ma'lum mazmunga ega.

Aholisi milliy tarkibida o'zbeklar 74,8 foiz, tojiklar 9,6, ruslar 5,1, tatarlar 3,1, eroniylar 0,9, armanlar 0,6, koreyslar 0,4 foizni tashkil etadi.

Aholisining milliy tarkibi va uning turli dinlarga aloqadorligi mahalliy turizmni vaqt hamda hududiy jihatdan tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, mahalliy millat vakillarining xususan bahor (mart-aprel) oylarida har xil diniy qadamjolariga sayohati ko'proq kuzatiladi. Ayni vaqtda aholi yosh tarkibida bolalarning katta hissi bolalar turizmini rivojlantirishni taqozo etadi. Jumladan, viloyat qishloq joylarining o'quvchilari uchun bahor va yoz oylarida Samarqand shahriga, uning atrofidagi tog' va soyliklarga, turli tarixiy obyektlarga qisqa muddatli ekskursiya turizmi tashkil qilinadi.

Xo'jaligi. Samarqand viloyati tabiiy geografik xususiyatga ko'ra, tog' va tog'oldi hamda tekislik-voha qismiga ajratiladi. Bu esa mintaqada sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Viloyatda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar 1677,3 ming gektarni tashkil etadi. Bu yerda haydaladigan ekin maydoni 26,1 %ni (shundan, sug'orma dehqonchilikda 15%, lalmikor yerlar 10,5 %), yaylovlar 48,4 foizdan iborat. Bundan tashqari, don ekiladigan maydonlar 185,7 ming gektar (bug'doy ekin

maydoni 160,2 ming gektar, yalpi mahsulot 454,7 tonna) bo'lib, yalpi yetishtirilgan mahsulot, 2002 yil viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 533,9 ming tonna, hosildorlik o'rtacha 28,7 sentnerga yetgan. Shuningdek, viloyat bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot, poliz, kartoshka yetishtirish bo'yicha ham respublikada yuqori o'rinlarda turadi.

Samarqand bog'lari qadimdan o'zining go'zallaigi, hosildorligining yuqoriligi, undagi mevalarning shirinligi bilan sayyohlarni hayratga soligan. Hozirgi paytda bog'dorchilik Samarqand shahri atrofi (Bulung'ur, Urgut, Samarqand, Toyloq) tumanlarida katta maydonlarni egallaydi. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyat bog'dorchiligida 55,4 ming gektar yer maydoni band, shundan bog'lar 19,5 ming gektar (36,6 %), mevali ko'chatlar 0,3 mingga (0,54%), tokzorlar 25,4 mingga (44,7%), tutzorlar 7,9 mingga (14,2 %), terakzorlar 2,4 ming gektarni (4,3 %) tashkil qiladi.

Sabzavot ekinlari yer maydoni 19,6 ming gektar bo'lib, 2003 yilda 460,5 ming tonna mahsulot olingan. Shuningdek, xususiy tomorqalarning aksariyat qismida ham sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari va boshqa mahsulotlar yetishtirilgan. Buning barchasi tuproq tarkibi va xususiyati bilan bog'liq. Ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand viloyatida sifati past yerlar 10 %ni, o'rtacha yerlar 52,2%, unumdor yerlar 31,7 %, juda yaxshi yerlar 5,9 % ni tashkil etgan (Usmanov, quvondiqov, 2002).

Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida bozor islohotlarining hayotga keng joriy yetishishi, ya'ni kichik va o'rta tadbirkorlikka e'tiborni kuchaytirish natijasida yer o'z egalarini topa boshladi. Hozirgi kunda viloyatda jami 7812 ta dehqon fermer va 48987 ta dehqon xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, 2001 yilda jami qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning 45% i dehqon fermerlar hissasiga to'g'ri kelgan. Bundan ko'rish mumkinki, davlat xo'jaliklariga nisbatan xususiy sektorning soni kamchilikni tashkil etsa-da, u umumiy iqtisodiy daromad hamda hosildorlikning yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Qishloq xo'jaligiga e'tiborni kuchaytirish birinchi navbatda mintaqa aholisining qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlanishi yaxshilaydi, ishsizlikni kamaytiradi, ikkinchidan Samarqand viloyatiga kelgan sayyohlarni sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, jumladan, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, go'sht, sut va non mahsulotlari bilan ta'minlash imkonini beradi.

Ayni paytda Samarqandga kelgan xorijiy va mahalliy sayyohlar dehqon bozorlarini ko'rishni hamda biror mahsulot xarid qilishni juda istashadi. Shuning uchun ularning talablarini o'rganish, sharq bozorlaridagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifat jihatdan yuqori bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, Samarqand viloyati, respublikamizda yalpi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha oldingi o'rinlarda turadi. Hozirgi kunda viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan asosiy sanoat korxonalari 139 tani tashkil etib, jami sanoatda 60 mingdan ortiq kishi band. Mintaqa sanoat tarmoqlari jumlasiga kimyo sanoati, mashinasozlik va metalni qayta ishlash, qog'oz-sellyuloza, qurilishi materiallari sanoati, chini va shisha buyumlari, yengil, oziq-ovqat hamda boshqalarni kiritish mumkin.

Viloyat sanoatining shakllanishi uzoq tarixga borib tanaladi. Chunki, mintaqada yengil sanoat, qurilish materiallari va Ayniqsa, qog'oz ishlab chiqarish qadimdan rivojlanib kelgan. Sanoatning zamonaviy tarmoqlarining vujudga kelishi bevosita Chor Rossiyasining bosib olishi, Ikkinchi jaxon urushi yillarida ko'chirib kelingan sanoat korxonalari zaminida shakllandi va rivojlandi. Bunga misol qilib Alpomish (Krasno'y dvigatel), Kinap azvodlari, Xovrenko va Bulung'ur sharob kombinatlari, Kattaqo'rg'on paxta tozalash zavodi va yog'-moy kombinati kabilarni keltirish mumkin.

Umuman olganda, viloyat sanoati, o'z navbatida, mintaqada mahalliy va xalqaro turizm imkoniyatlarini yanada oshiradi. Ayniqsa, sayyohlar uchun sovg'a bop buyumlar ishlab chiqarish kengaymoqda. Masaklan, Afg'on-Buxoro-Samarqand qo'shma korxonasida gilam va gilam mahsulotlari asosan sayyohlar uchun ishlab chiqarilmoqda. Samarqand-Praga qo'shma korxonasining bejirim

idishlariga chanqoqbosti mineral ichimliklari esa mavsumiy sayyohlikda (ayniqsa, yoz oylarida) muhim ahamiyatga egadir.

Viloyatda turizmni tashkil etish va rivojlantirishda sanoat korxonalari o'zni kattadir. Chunki, bu yerda mamlakatimizda noyob yoki kam tarqalgan sanoat korxonalari aynan shu yerda joylashgan. (Choy qadoqlash, tamaki fermentasiyasi, kinoapparatura, sovitgich, chini idishlar, lift mikroavtobus ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan).

Transporti. Viloyat turizmida transport infrastrukturasi o'zni nihoyatda katta ahamiyatga ega. Viloyatda umumiy avtomobil yo'llarining uzunligi 12510 km. bo'lib, shundan qattiq qopalmli yo'llar 4072 km.ni tashkil etadi. Xalqaro va mahalliy ahamiyatga ega avtomobil yo'llari viloyatning aksariyat tumanlarini kesib o'tadi. Xususan, ular Bulung'ur, Jomboy, Toyloq, Urgut, Pastdarg'oi, Kattaqo'rg'on, Narpay va Paxtachi tumanlarida katta mavqiyega egadir. Ayni paytda Samarqand shahrining geografik joylashuvida avtomobil yo'llarining halqasi tumanlarni bir-biri bilan bog'laydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, viloyatdagi aksariyat turistik obyektlarning avtomobil yo'llariga yaqin joylashganligi ham o'z o'rnida turizmni rivojlantirishda qulay sharoitlar tug'diradi.

Shunday qilib, viloyat tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tahlili, birinchidan, bu yerda turli yo'nalishdagi turizmni rivojlantirish va ikkinchidan, mintaqa hududining turistik geografik nuqtai nazardan ichki tafovutlarga boy ekanligidan darak beradi.

2. Viloyat turizmining hududiy tashkil etilishi

Sayyohlarning dunyoni kengroq anglash, bilish maqsadida o'zi uchun noma'lum bo'lgan joylarni ko'rishga va o'rganishga bo'lgan ehtiyoji yildan-yilga kuchayib bormoqda. Bu, o'z navbatida, turistik obyektlar turlarining kengayishiga, turistik biznesning yuzaga kelishiga olib keldi.

Turistik obyektlar nafaqat rekreasiya balki sog'lomlashtirish bilan birgalikda tarixiy, madaniy, tabiiy, ekoturistik, etnografik (hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati, urf-odatlar, milliy an'analari kabilar) hamda diniy turistik obyektlar singari ko'plab turlari vujudga keldi. Masalan, keyingi yillarda noyob landshaft zonalari, iqlimi qulay va noqulay maskanlarga (cho'l, g'or, muzliklar, okean osti dunyosi, ochiq kosmos va h.k.) sayohat uyushtirish kengaymoqda.

Samarqand viloyat turizmi tarkibi va geografiyasi xilma-xil bo'lib, mintaqada o'ziga xos turistik marshrutlarni yo'lga qo'yish mumkin. Bu yerda, bizningcha, viloyat turistik imkoniyatlari va resurslarini quyidagi asosiy guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir.

-madaniy turistik obyektlar. Inson tomonidan yaratilgan asrlar davomida saqlanib kelinayotgan tarixiy binolar, arxitektura yodgorliklari, arxeologik topilmalar, xarobalar, diniy ziyoratgohlar, qadamjolar, qabristonlar, milliy hunarmandchilik, urf-odatlar, to'y-tomoshalar, maqolalar va boshqalarni o'z ichiga olib, viloyat turizmining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

-tabiiy turistik obyektlar. Bularga tabiat tomonidan yaratilgan noyob yodgorliklar, jumladan, karst g'orlari, rekreasiya maskanlari, shifobaxsh buloqlar, balchiqlar, manzaralari landshaft qo'riqxona, to'qay va undagi o'simliklar, hayvonot olami, nurash natijasida hosil bo'lgan shaklar va boshqalarni kiritish mumkin. Samarqand viloyatining tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi va suvlari davrlar davomida shakllangan.

Ulardan turistik obyekt sifatida foydalanish ham ahamiyatlidir.

Insoniyatning uzoq o'tmishidan dalolat beruvchi tarixiy obidalarni tomosha qilish kishilarning hayolan moziyga sayohat qilishiga, ajdodlarning bizga qoldirgan boy ma'naviy merosini o'rganishga katta yordam beradi. Jumladan,

jahon miqyosida sayohatga chiquvchilarning ko'pchiligi dunyoning turli mamlakatlaridagi tarixiy obidalarni ko'rish maqsadida safar qilishmoqda. Jahon Xalqaro turizmida Italiya, Fransiya, Xitoy, Hindiston, Misr kabi davlatlarga tashrif buyuruvchi sayyohlar insoniyat tomonidan yaratilgan tarixiy, arxitektura, qurilish, binokorlik va boshqa qadamjolarni hayrat bilan tomosha qilishadi hamda zavq olishadi. Binobarin, barcha narsalarning vaqt o'tishi bilan qadr-qimmatini saqlab qolishi va tarixiy turistik ahamiyat kasb etishi tarixiy obidalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston hududida tarixiy obidalar ko'pligi jihatidan Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinda turadi. Uning qadimiy Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz kabi shaharlaridagi tarixiy obidalar, me'moriy yodgorliklar jahon xazinasining durdonalari hisoblanadi.

Ma'lumki, xalqaro turizmini bir turi sifatida diniy turizm yil sayin o'sib borayotgan sohalardan biridir. Kishilar muqadas qadamjolarni, jumladan, qabristonlar, masjidlar va madrasaalarni aziz maskan sifatida e'zozlashgan. Shu sababli diniy turizm qadimdan rivojlanib kelgan. Musulmonlar muqadas qadamjoni sifatida Saudiya Arabistondagi Makka va Madina shaharlarini xristianlar Vatikan, Iyerusalim (quddus) va boshqa shaharlarni ziyorat etishadi. Hozirgi paytda islom dunyosi vakillaridan 1,5-2 mln. kishi haj safarida ishtirok etmoqda.

Samarqandni aziz, muqaddas, avliyolar va buyuk insonlar abadiy qo'nim topgan joy sifatida e'zozlashadi. Xalqimiz ulug' din ulamolari, buyuk kishilar, avliyolar qabristonlarni ziyorat etish, o'tganlar ruhini shod etish maqsadida Samarqand shahri va uning tumanlaridagi ziyoratgohlarga tashrif buyurishadi va katta ma'naviy energiya, ozuqa olishadi. Binobarin, Samarqandda diniy turizmni rivojlantirish uchun Shoxi Zinda, Xazrati Xizr, Ruxobod, Amir Temur, Imom buxoriy, Motrudiy, Xazrati Dovud, Chorchinor va boshqa ko'plab ziyoratgoh qadamjoylar mavjud bo'lib, ular sayyohlikni yuksaltirishga katta imkoniyat yaratadi.

Kishilar sayohat davomida boshqa mintaqalar, davlatlar, shaharlar, tarixiy obidalar, arxitektura yodgorliklari, go'zal tabiati bilan birgalikda shu joyda

yashaydigan aholining turmush tarzini, urf-odat va an'analarini ko'rishni, ya'ni etnografik turizmni ham juda istashadi. Binobarin, sayohat inson tafakkurini kengaytirib, dunyoni teran anglashga boshqa xalqlarni bilishga, o'rganishga xizmat qiladi, siyosiy jihatdan kishilarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bu o'z navbatida, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamda madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim omildir.

O'rta Osiyo xalqlari boy ma'naviy tarixga, o'ziga xos milliy urf-odatlarga va madaniyatga ega. Ayniqsa O'zbekistonning salohiyati, aholisining qadimdan saqlanib kelayotgan an'analari, udumlari, to'ylari boshqa xalqlarni qiziqtirib kelmoqda.

Ma'lumki, Samarqandning so'lim bog'lari, musaffo havosi, shifobaxsh suvlari, maftunkor tabiati qadimdan kishilarni o'ziga jalb qilib kelgan. Uning Urgut, Ohalik, /ubdin tog'lari bo'ylab sayohat qilganlar tabiatning mo'jizalariga yana bir bor iqror bo'ladilar.

Lekin ulardan hozirgi paytda turizm maqsadida to'laligicha foydalanilmayapti.

Yuqorida berilgan Samarqand viloyatining turistik karta sxemasida har bir hududning o'ziga xos turistik obyektlari, jumladan, tarixiy obidalari rekreasiya va ekoturistik maskanlari hamda milliy an'analari, o'zida mujassamlashtirgan hunarmandchilik tarmoqlarining hududiy joylashuvi aks ettirilgan (_chizma).

Shunday qilib, Samarqand viloyatini ma'muriy turistik rayon, ya'ni milliy turizmning alohida mintaqasi sifatida qarash mumkin. Uning doirasida esa turli yo'nalish va bosqichdagi rayonlar ajratiladi.

Rayonlarning bunday turli xilligi eng avvalo rayon hosil qiluvchi omillarning xarakteriga bog'liq.

Ma'lumki, turistik rayonlarni ajratishda ikki asosiy omil mavjud. Bu ham bo'lsa tabiiy landshaft hamda ijtimoiy-madaniy mazmunga molik har xil tarixiy obyektlardir. Agar birinchi omil nuqtai nazaridan yondoshgan bo'lsak, Samarqand viloyati hududida ikki tabiiy turistik rayonlarni ajratish mumkin: tog' va tekislik turistik rayonlar. Ularning har biri o'ziga xos geomorfologik, iqlimiy, gidrologik

xususiyatlarga, hayvonot va o'simlik olamiga, jozibaligiga ega. Binobarin, tog' hamda tekislik mintaqalarida turizmning shakllari ham turlicha. Biroq, ularning barchasiga ov turizmi hamda ekoturizm xosdir.

Viloyat hududida tog'li rayonlar uncha ko'p emas. Asosiy, nisbatan baland tog'lar uning chekka shimol (nurota tizmasi, balandligi 2150 metrgacha) va janubida (Zarafshon tog' tizmasi, balandligi 2600 metrgacha) joylashgan bo'lib, ular Ayni vaqtda viloyatning ma'muriy chegara chizig'igacha ham mos keladi. Uncha baland bo'lmagan Oqtov tizmasi (1350-1750 m). Nurota tog'ining janubrog'ida joylashgan. Bu hududlar tog' turizmini, jumladan ov, rekreasiya hamda sport turizmini rivojlantirish imkoniyatlariga ega. Ayniqsa tog'larni ko'ndalangiga kesib o'tadigan soy yoki soyliklar bo'lib sayohat o'tkazish qiziqarli bo'lishi tabiiy. Chunki, bunday kichik gidrologik elementlar hududning o'ziga xos «kesmasi» yoki profili bo'lib, ularda qisqa muddatli sayohat (piyoda ekskursiya) davomida turli xil manzaralar, landshaftlarning o'zgarib borishi kuzatiladi. Tekislik qismi o'zlashtirilgan voha, intensiv dehqonchiligi hamda cho'l-ekstensiv chorvachilik mintaqalaridan iborat. Birinchidan, ayniqsa etnografik va ov (jumladan daryo va suv omborlarida baliq ovi) turizmni shakllantirsa bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy yodgorliklar bo'yicha rayonlashtirish esa butun hududni qoplab olmaydi. Bunday rayonlarni faqat Samarqand hamda tarixiy yodgorliklar, diniy mazmundagi obyektlar bor tumanlarda ajratiladi. Aynan ana shu turdagi rayonlar hududiy turistik majmualarga mos keladi. Yuqoridagi turistik rayonlashtirishdan tashqari yana uchinchi, integral tipdagi rayonlarni ham belgilash mumkin. Ushbu toifadagi rayonlar quyi darajadagi ma'muriy-hududiy birliklar doirasida ajratiladi. Ularning eng ijobiy tomoni shundaki, bunday rayonlarda turistik faoliyatni tuman hokimligi tasarrufida tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish imkoniyatlari mavjud. Shu nuqtai nazardan Samarqand shahri turistik rayonlari ajratiladi. Tabiiyki, mazkur rayonlarning turistik imkoniyatlari va salohiyatlari bir xil emas. Ammo, aynan ana shu hududiy xususiyatlarni e'tiborga olish mintaqaning turistik siyosatini amalga oshirish va yuzaga kelgan muammolarni yechishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

3. Viloyatda turizmining rivojlanishi

Samarqand viloyati qadimgi davr tarixiy-me'moriy obidalarga boy viloyat hisoblanadi. Samarqanddagi obidalar 2001 yilda YuNESKOning jahondagi insoniyat qoldirgan me'roslari ro'yxatiga kiritildi va shahar «Samarqand jahon madaniyat o'chog'i» nominasiyasini oldi. Samarqand viloyati alohida tarixiy markaz hisoblanib qolmay, balki turli madaniyatlar tutashgan maskandir. Misol uchun Temuriylar davri madaniyati. Bunday madaniyatlar dunyo miqyosida ham ko'pchilikni qiziqishni uyg'otadi.

Samarqandning markaziy qismida shaharning paydo blishi bilan bog'liq qo'riqxonalar va o'rta asrlarga oid yodgorliklar hamda hozirgi kundagi zamonaviy Yevropa uslubida bunyod etilgan inshootlar qad ko'targan.

Shaharning tarixiy va hozirgi holati:

1. «Afrosiyob» xarobalari (eramizdan avvalgi V-XX asr) arxeologik qo'riqxonalar hisoblanadi. Bu yerda insonlar hayoti bilan bog'liq sirli ma'lumotlar minglab yillardan beri saqlanadi. 1 hudud 220 gektar.
2. «Eski shahar» (o'rta asr shahri-shahar atrofidagi devor va darvoza ta'mirlangan) (XII-XX asr) 2-hudud 360 gektar.
3. «Yangi shahar» (tarixiy-me'moriy yodgorliklar. Yevropa shaharsozligi uslubida qurilgan). (XIX-XX asr) 3-hudud 300 gektar.

Samarqand viloyatidagi alohida ahamiyatga ega imoratlar hozirgi kunda ta'mirlash va qayta tiklash ishlari olib borilmoqda. Bunday qiziqarli inshootlarni o'rganish nafaqat tarixchilar uchun balki mahalliy turistlar va xorijdan kelayotgan mehmonlarning sonini oshirishga sabab bo'lmoqda. 2004 yil Samarqand shahrida Butunjahon Turistik tashkilotining doimiy idorasi ochildi. Samarqand viloyati mamlakatdagi yagona turizm markazi hisoblanib, uzoq muddatli istiqbolga egadir. Taxminlarga ko'ra 2010 yilga borib sayohatchilar soni 200,0 ming kishini tashkil qiladi, 2020 yilga borib esa bu ko'rsatkich 500,0 ming kishiga yetar ekan. Albatta, bunday natijalarga majmualar turizm infrastrukturasi shakllantirish, xizmatlarni, turizm moddiy texnika bazasini yaxshilash kabi yo'llar bilan erishiladi.

2000 yilda Samarqandga 119,7 ming kishi tashrif buyurgan bo'lsa shundan 62,0 ming nafari (51%) xorijiy sayyohlar hisolanadi. Shu soha bilan shug'ullangan turistik firmalarning umumiy soni 46 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlar 2005 yilga kelib Samarqandga jami 58,5 ming nafar turistlar tashrif buyurishdi shundan 36,9 ming xorijiy turistlar hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki sayohatchilar soni 2000 yilga nisbatan 2005 yilda kamayib ketgan.

Tashrif buyurgan chet ellik turistlar asosan Fransiyadan-10,8 ming nafar, Germaniyadan-1,8 ming nafar, Italiyadan-1,6 ming nafar, Yaponiyadan-3,5 ming nafar, Isroildan-1,8 ming nafar, Italiyadan-1,6 ming, Avstraliyadan-1,4 ming, Angliyadan-1,2 ming nafarni tashkil qiladi. qolgan turistlar boshqa chet va MDH davlatlari fuqarolarini tashkil qilishadi.

MDH mamlakatlaridan 3,0 ming sayyoh tashrif buyuradi. Bu 1980-90 yillarga nisbatan 10-12 marta kam. Albatta buni sabablari bor, chunki 80-yillarda mahalliy aholiga o'z vatani tarixini, unga bo'lgan mehr-muhabbatini uyg'otish masadida faqat sobiq SSSR bo'ylab sayohat qilishga undar edilar. 2000 yilda, misol tariqasida aytsak, Samarqandga mahalliy turistlarning soni 57,7 ming kishini tashkil qilgan.

1-jadval

Samarqand viloyatiga kelgan chet ellik turistlar

№	ko'rsatkichlar	2001	2002	2003	2004
1.	Turistlar soni (ming/k)	119,6	109,1	92,6	90,0
2.	Chet el turistlar (ming/k)	51,4	27,4	29,4	36,5
	Foizda	48,0	25,1	31,7	40

Jadval «O'zbekturizm»MK Samarqand viloyati mintaqaviy bo'limi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, viloyatga kelayotgan jami turistlar soni ham undagi xorijiy mexmonlar miqdori ham yildan-yilga kamayib bormoqda.

Endi mintaqada mahalliy turizmni rivojlantirish 1-3 kunlik hudud bo'ylab marshrutlar uyushtirish, viloyat tog' oldilarida dam olish va sport turizmini rivojlantirib yoshlar ongida vatanga muhabbat hissini uyg'otish joiz. Hozirda «ichki turizm» ni inqirozga yuz tutgan davri desak xato bo'lmaydi. Chunki bozor

iqtisodiyotiga o'tish davrida respublikamiz aholisi o'zidan ortib guruh-guruh bo'lib sayohatlarni amalga oshirmay qo'ydi. Viloyatlardagi «O'zbekturizm» MK filiallarini esa bunday tadbirlarga ortiqcha xarajat qila olmaydi.

2-jadval

**2000-2004 yillarda Samarqand viloyatiga kelgan xoriy
turistlar soni**

№	Ko'rsatkichlar	2000	2001	2002	2003	2004
1.	Turistik xizmatlar ko'lami (jami ming so'm)	1351,1	1921,8	3903,0	3670,0	4887,7
2.	Daromad (ming AqSh)	1488,5	1487,7	110,0	338,6	31,9
3.	Jami turistlar ming kishi	119,7	119,6	109,1	92,6	90,0
	Ming kishi / kuniga	412,6	362,7	235,5	280,4	207,5
	Shundan:					
	Chet ellik turistlar (ming/k)	62,0	57,4	27,4	29,4	36,5
	Mahalliy (ming/k)	57,7	62,2	81,7	63,2	53,5
4.	O'rtacha davomiyligi (kunlik)	3	3	2	3	2
5.	Eksport xizmatlar (8)	5584,5	6768,0	3750,0	3822,7	4460,9

***Jadval «O'zbekturizm»MK Samarqand viloyati mintaqaviy bo'limi
ma'lumotlari asosida tuzildi.***

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mahalliy turizm deyarli stabil holda, turistik xizmatlar ko'lami 2000 yilga nisbatan 2004 yilda o'sgan. Chet ellik turistlarni kelishi ham teng yarim barobarga kamayib ketgan. Asosiy tushadigan daromad guruh-guruh bo'lib kelgan sayohatchilardan bo'lib, bunda barcha turistik obyektlar bilan tanishish bahonasida ko'p suvenir buyumlar xarid qiladilar. Bunday guruhlar butun O'zbekistonning turistik obyektlarini ko'rish uchun 10-12, 6-9 kunlik sayohatga chiqadilar. Marshrut dasturida ko'pincha Toshkent-Samarqand-Buxoro-Xiva-Toshkent bo'lganligi sababli Samarqandga 1 yoki 2-3 kun ajratiladi. XX1 asr «xizmatlar ko'rsatish asri» deb e'lon qilindi. Bu asrda Samarqand shahri ham alohida o'rin egallashi lozim. Turistik xizmatlarni sotishda mahalliy, mintaqaviy va respublika hukumatining turistik tashkilotlarni qo'llab quvvatlab turishi zarur. Bunda viloyat aholining ko'p asrlik mehmondo'stligi shaharga yanada ko'proq

turistlarni kelishini ta'minlovchi eng asosiy omildir. Asosiysi sayohatlarga yaxshi tayyorgarlik, xodimlar va gid tarjimonlarning ko'pligi va sifatli xizmati hamda shahar infrastrukturasi yaxshi holatda ekanligi jahon turizm bozoridagi boshqa raqobatchilar bilan bellashish imkonini beradi. 2004 yilda Samarqand viloyatida 55 ta turistik firmalar, 25 ta mehmonxonalar (shundan 20 tasi xususiy) faoliyat olib bordi. Bu mehmonxonalardan ikkitasi to'rt yulduzli ular «Prezident Otel» va turistik markaz «Afrosiyob Palas» mehmonxonalari. Bu ko'rsatkichlar 2005 yilga kelib turizm faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan 67 ta firma va bir yo'la 2754 nafar tursitlarni qabul qilish quvvatiga ega bo'lgan 4 ta yirik («Prezident Otel»-4 yulduzli-227 o'rinli, «Afrosiyob Palas»-4 yulduzli-500 o'rinli, «Biznes Sentr Samarqand»-3 yulduzli-212 o'rinli, «Samarqand»-366 o'rinli) va 29 ta xususiy mehmonxonalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

2005 yilda turizm faoliyati bilan shug'ulanuvchi jami 7 ta firma lisenziya oldi, shundan 3 ta yangi xususiy mehmonxonalar («Yulduz» 12 o'rinli, «Joni»-23 o'rinli va «Sharq»-45 o'rinli) ishga tushirildi.

Asosiy yirik mehmonxonalar chet elik hamkorlar bilan ish olib boradilar. «Otel-Sentral» Avstriya bilan birga, «Samarqand» mehmonxonasi Malayziya bilan «Oriyent Star» Fransiya bilan va «Zarafshon» Shveysariya davlatlari bilan hamkorlikda xizmat ko'rsatadilar.

Ushbu mehmonxonalarning bir vaqtda turistlarni kutib olish imkoniyati 2,5 ming kishi bo'lib, sayohatchilarni shahar bo'ylab 2-3 kun tarixiy obidalar bilan tanishtirib chiqish imkoniga ega.

Samarqand shahrida 148 ta tarixiy-arxitektura yodgorliklari aniqlangan. Bunday eksponatlarga ega bo'lgan shaharni bejizga «Ochiq osmon ostidagi muzey» deb atashmaydi. Shunday imkoniyatga ega bu shaharda endi turistlarni qiziqtiruvchi yangi-yangi narsalar, yangri marshrut va ekskursiyalar dasturini ishlab chiqish kerak.

2006 yilda 200-o'ringa mo'ljallangan 8 ta xususiy mehmonxonalar ochilishi rejalashtirilmoqda.

2005 yilda Samarqand shahrida turizm sohasida yuqori ko'rsatkichlarga erishgan quyidagi tursitik firmalar va mehmonxonalarni sanab o'tish mumkin:

- «Afrosiyob Palas» mehmonxona majmuasi-9,5 ming.
- «Prezident-Otel» mehmonxonasi-5,5 mingdan ziyod.
- «Oriyent voyaj» xususiy sayyohlik agentligi-3,5 mingdan ziyod.
- «Sogdo Tur» turistik kompaniyasi-2 mingdan ziyod.
- «Silk tur» MChJ-1,7 ming.

Mintaqa turizmida transport infrastrukturasi o'zni nihoyatda katta ahamiyatga ega. Viloyat umumiy avtomobil yo'llarining uzunligi 12510 km bo'lib, shundan qattiq qoplamli yo'llar 4072 km ni tashkil etadi. Xalqaro va mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo'llar viloyatning aksariyat tumanlarini kesib o'tadi. Ayni paytda Samarqand shahrining geografik joylashuvida avtomobil yo'llarining halqasi tumanlari bir-biri bilan bog'laydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, viloyatdagi aksariyat turistik obyektlarning avtomobil yo'llariga yaqin joylashganligi ham o'z o'rnida turizmini rivojlantirishda qulay sharoit tug'diradi.

Samarqandda mustaqillikdan so'ng havo transporti ancha o'sdi. Jumladan, Samarqand aeroporti chet ellik investorlar ko'magi bilan barcha turdagi samolyotlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Hozirgi kunda Samarqand aeroportidan respublikaning turli viloyatlariga qolaversa, xorijiy davlatlarga (MDH) reyslar joriy etilganligi turizmga ahamiyatlidir.

O'zbekistonda temir yo'llar tarixi bevosita Samarqand bilan bog'liq. Viloyatni kesib o'tgan temir yo'l ikki (qarshi va Buxoro) yo'nalishi bo'ylab tarqalgan va u Bulung'ur, Jomboy, Pastdarg'om, Nurobod, Kattaqo'rg'on, Narpay hamda Paxtachi tumanlarini kesib o'tadi. 2005 yildan boshlab Tokent-Samarqand tez yurar poyezdda yo'lga qo'yildi. «Registon» deb nomlangan ushbu tez yurar poyezda Farg'ona vodiysi, Toshkent shahri, Toshkent viloyati aholisi 1 kunlik sayohatga kelishlariga imkoniyat paydo bo'ldi.

Viloyatda turistlarga transport xizmatlarini ko'rsatib kelayotgan «Oriyent», «Inturistavto» korxonalarining faoliyati bir muncha yaxshi. Lekin shuni ham ta'kidlash joizki viloyatda yengil avtomobillarni ijaraga beruvchi korxonalarning

mavjud emas. Shunday korxona va firmalar tashkil etilsa, uzoq muddatga 10-20 kunga keluvchi turistlar o'zlari mashinalarida sayr etishlari vaqtlarini maroqli o'tkazishlariga, urf-odatlar, qadriyatlar, turmush tarzi va h.k.lar bilan tanishishlariga imkoniyat yaratilgan bo'lardi.

Viloyatda umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatini unchalik yaxshi deb bo'lmaydi. Har bir xalqning o'zini milliy taomlari bor, lekin bu taomlarni mehmonlar iste'mol qilmasliklari mumkin. Masalan, yevropaliklar birinchi marta ko'rayotgan ovqatini oldin yaxshilab o'rganib tayyorlanishini texnologiyasini ko'rib keyin iste'mol qiladi. Balki ular o'zlarining Yevropa taomlarini iste'mol qilishni hohlashar yoki turistlar orasida vigiterianlar bor bo'lishi mumkin, shularni inobatga olgan holda restoran va kafelarda turli xil davlatlarning kamida bir turdagi ovqatlarini tayyorlash yo'lga qo'yilsa, mehmonxlarning xoxish istaklari o'z vaqtida bajarilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Hozirgi kunda mehmonxonalarimizda 20 ta, maksimum 25 ta Yevropa taomlari tayyorlanishi mumkin. Vaholanki g'arb standartlariga ko'ra bu chegaralanmagan. Yaponiya va Italiyalik turistlarning 25% i xususiy restoran va kafelar faoliyatidan mamnun bo'lsa, qolgani esa aksincha javob berishadi. Shunga ko'ra turistlarga xizmat ko'rsatuvchi mas'ul ovqatlanish korxonalariga SESlar tomonidan alohida e'tibor berilsa ularning xizmatlar ko'rsatish darajasi yaxshilansa, sayyohlar talablari o'z vaqtida qondirilsa, viloyatga tashrif buyurgan sayyohlar mamnun bo'lishsa, turistlar oqimining oshib borishiga zamin bo'ladi.

Turistlar sonini oshirishda sayyohlik tashkilotlarining roli nihoyatda kattadir. Bu asosan turistik firmalar va kishilarning faol harakatidir. Turistik firmalar asosan sayohatni rejalashtiradi va tashkillashtiradi hamda mutaxassislar yordamida turistik bozorni o'rganadi. Hozirgi kunda viloyatdagi xususiy turistik firma «Sarbon tur», «Alijon», «Sayohat», «Natali i L» lar turistlarni jalb qilish va xizmat ko'rsatish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishib kelmoqda.

Viloyat turizm infrastrukturasini rivojlantirish mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalarining xizmati, transport xizmatlari, sport sog'lomlatirish, sog'liqni saqlash tashkilotlari, turistik firma va tashkilotlar xizmatlarini jahon

andozalari darajasiga yetkazish viloyatga keluvchi turistlar sonini oshishiga Samarqand viloyatini kelajakda asosiy «Turistik mintaq» ga aylanishiga asos bo'lib xizmat qiladi

XULOSA

Bozor munsobatlariga o'tish davrida mamlakatimiz milliy iqtisodiytida turizmni rolini oshirish, undan keladigan daromadni va shu sohada band aholini ko'paytirish, «Turizm asri» deb atalmish XXI asrda davlatimiz hukumatining oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu borada mamlakatda talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. Bajarilgan Mazkur bitiruv malakviy ishidan shunday xulosaga kelish mumkinki, «Markaziy Osiyo gavhari» deb atalgan Samarqand viloyatida yetarli imkoniyatlar mavjud ekan, ulardan unumli foydalanish zarur.

Viloyatda turizmni hududlar bo'yicha rivojlantirish, turizm infrastrukturasini yaxshi yo'lga qo'yish zarur. Imkon qadar shu sohada ishlovchi kishilar sonini ko'paytirish aniqrog'i malakali mutaxassislar (turagent, turoperator va gidtarjimon) tayyorlash, ularga chet el tajribasini o'rgatish va sifatli xizmat ko'rsatish xususiyada ilmiy seminarlar tashkil qilinsa maqsadlarga muvofiq bo'lar edi.

Mintaqada turizmni rivojlanishida mahalliy tadbirkorlarga ham kengroq yo'l ochib berish zarurligi ilmiy ishning asosiy qismida to'raligicha aytib o'tildi.

Agarda hukumat tomonidan ularga imtiyozlar yaratilsa, tadbirkorlar kelajakda katta daromad keltiruvchi ko'ngilochar majmualar, mehmonxonalar, turistlarga transport xizmat ko'rsatuvchi korxonalar ochishi mumkin.

Samarqand viloyatiga kelayotgan chet ellik sayohlar sonini ko'paytirishning yana bir yo'li, viza va bojxonalardagi turli hujjatbozlik kabi muammolarni hal etish zarur. O'rganilgan ishdan yana shuni xulosa qilib aytish kerakki, shaharga kelayotgan turistlar uchun yaratilgan xizmatlar va mehmonxonalarga qo'yilgan narxlar bir muncha yuqori. Bunga albatta mehmonxonalarga davlat tomonidan qo'yilgan soliq va majburiyatlar ham sabab bo'lishi mumkin.

Samarqand viloyatida faqatgina tarixiy-me'moriy va diniy turizm yaxshi rivojlangan. Shaharga 1 hafta 10 kunga kelgan sayohatchi, har kuni bir xil uslubdagi obidalarni ko'raverib zerikib qolishi mumkin. Shu bois shahar atrofida turizmning boshqa ko'rinishlarini ham rivojlantirish va turistik infrastrukturani yo'lga qo'yish orqali turistlar vaqtini chog' o'tkazishni ta'minlash lozim.

Sayohatchilarni kundalik ekskursiyadan keyingi vaqlarini mazmunli o'tkazish maqsadida ko'proq tadbirlar uyushtirish zarur. Samarqandga kelayotgan turistlarning aksariyat qismi Yevropa mamlakatlaridandir. Shu bois ularning kuy,qo'shiqlari yangrab turuvchi diskotekalar va tungi klublarni tartibli ravishda tashkil qilish ham xizmat ko'rsatishning bir ko'rinishi hisoblanadi. Bir narsani aniq aytish mumkinki, turistlar ichida asosan nafaqa yoshidagi kishilar 90-95 % ni tashkil qiladi. Shuning uchun ularga milliy o'zbek folklorlarini namoyish qilish, hamda mahalliy aholi bilan kelishilgan holda turistlar xavfsizligini ta'minlab to'ylar, urf-odatlarini namoyish qiluvchi tadbirlarga olib borish mehmonlarda katta taasurol qoldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston, 1997.
2. Abdullayev Yo. Makroiqtisodiy statistika.-T.: Mehnat, 1998.
3. Abdumalikov R. Turizm.-T.: O'qituvchi, 1978.
4. Abdumalikov R. Sayohat sahifalari.-T.: Yosh gvardiya, 1971.
5. Abramov M.A. Geografiya servisa.-M.: Mo'sl, 1985.
6. Abramov M.M.Samarqand qabristonlari.-Samarqand, 1995.
7. Abramov M.M. Guzaro' Samarkanda.-T.: O'zbekiston, 1989.
8. Akramov Z.M. Samarkand.-T.: O'zbekiston, 1969.
9. Alekserov Yu.N., Normatov X.N. Samarkandskaya oblast.-T.: O'zbekiston, 1982.
10. Aleksandrova A.Yu. Mejdunarodno'y turizm: Uchebnik.-M.: Aspekt Press, 2002.
11. Asanov G.R. Sosial-iqtisodiy geografiya, termin va tushunchalar izorhli lug'ati.-T.: O'qituvchi, 1990.
12. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug'rofiyasi.-T.: O'qituvchi, 1994.
13. Ahmedov E.A. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida.-T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashri, 2002.
14. Ahmedov E.A. O'zbekiston shaharlari.-T.: O'zbekiston, 1991.
15. Yerdavletov S.R. Geografiya turizma: istoriya, teoriya, metodo', praktika.-Almato'. 2000.
16. Yefrimov Yu.K. Geografiya i turizma//Voproso' geografii. Geografiya i turizma.-M., Mo'sl, 1973.
17. Komilova F. Xalqaro turizm bozori.-T.: TDYuI, 2001.
18. Komilova F. Mehmonxona va restoran xo'jaligi. T.: O'qituvchi, 2002.
19. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. Prof. A.Soliyev tahriri ostida.-T.: Universitet, 2003.